

TANQIDIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA DEBAT VA MUNOZARALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

Nilufar Ibroximova

Namangan davlat pedagogika instituti o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ona tili darslarida tanqidiy tafakkurni shakllantirishda debat va munozaralarning o'rni va ularni samarali qo'llash yo'llari yoritilgan. 5–9-sinflar uchun mo'ljallangan yangi avlod darsliklari asosida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar tahlil qilingan, ularni debat va munozara metodikasi bilan boyitish yo'llarini ko'rsatilgan. Shuningdek, metodik tavsiyalar, amaliy tajribalar ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *tanqidiy tafakkur, debat, munozara, ona tili, yangi avlod darsliklari, metodika.*

Аннотация: *В данной статье освещается роль дебатов и дискуссий в формировании критического мышления на уроках родного языка, а также пути их эффективного применения. На основе учебников нового поколения для 5–9 классов проанализированы задания, направленные на развитие критического мышления, и показаны способы их обогащения с помощью методики дебатов и дискуссий. Кроме того, представлены методические рекомендации и практический опыт.*

Ключевые слова: *критическое мышление, дебаты, дискуссия, родной язык, учебники нового поколения, методика.*

Annotation: *This article highlights the role of debates and discussions in developing critical thinking in native language lessons and explores effective ways of applying them. Based on new generation textbooks for grades 5–9, the article analyzes tasks aimed at enhancing critical thinking and shows how they can be enriched through debate and discussion methodology. Methodological recommendations and practical experiences are also presented.*

Keywords: *critical thinking, debate, discussion, native language, new generation textbooks, methodology*

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarda nafaqat bilim, balki fikr yuritish, dalillash, tahlil qilish kabi yuqori darajadagi kognitiv kompetensiyalarni shakllantirish zarurati kuchaymoqda.

Tanqidiy tafakkur — bu shaxsiy fikrga asoslangan holda haqiqatni izlash, muqobil fikrlarni baholash va asosli xulosa chiqarish jarayonidir. Bu ko'nikmalarni shakllantirishda, ayniqsa, ona tili darslarida debat va munozara metodlarining imkoniyatlari juda keng.

Debat – bu qat'iy qoidalar asosida tashkil etiladigan, ikki yoki undan ortiq qarama-qarshi fikrdagi guruhlar yoki shaxslar o'rtasida olib boriladigan mantiqiy bahs, dalil-isbotlarga asoslangan fikrlar almashinuvi bo'lib, ishtirokchilardan mavzuga tanqidiy, tahliliy va asosli yondashishni talab qiladi.

Debatning asosiy xususiyatlari:

1) qat'iy reklamentga asoslangan bo'ladi (vaqt, rol, tartib);

- 2) ishtirokchilar o'z pozitsiyasini dalillar bilan himoya qiladi;
- 3) qarshi tomon fikriga hurmat bilan e'tiroz bildiradi;
- 4) xolis hakamlar tomonidan baholanadi;
- 5) tanqidiy tafakkurni, nutq madaniyatini, muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Munozara – bu biror muammo, fikr yoki masala yuzasidan qarama-qarshi yoki turli nuqtayi nazarni ifoda etish, tahlil qilish, asoslash hamda muqobil fikrlar bildirish orqali olib boriladigan fikrlar almashuvi jarayoni.

Munozaraning asosiy xususiyatlari:

- 1) erkin shaklda yoki yarim-erkin strukturada o'tadi;
- 2) barcha ishtirokchilar fikr bildirishi mumkin;
- 3) muammo yuzasidan turli yondashuvlar taqqoslanadi;
- 4) yakuniy xulosa umumiy yoki har xil shaklda bo'lishi mumkin;
- 5) tanqidiy va tahliliy fikrlashga undaydi.

Yangi avlod darsliklarida mavjud topshiriqlar ko'p hollarda bilimni mustahkamlashga yo'naltirilgan. Biroq, topshiriqlarni tanqidiy tafakkur yondashuvi asosida qayta ishlash, o'quvchilarning intellektual salohiyatini to'liq namoyon etish imkonini beradi. Debat va munozaralar esa ushbu transformatsiyani samarali amalga oshirishning eng qulay vositalaridan biridir.

Misol uchun 5-sinf yangi avlod ona tili darsligidagi “Fe'l zamonini aniqlang” mashqi berilgan bo'lsa, biz buni o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirish uchun boshqacharoq tarzda yondashishimiz, ya'ni munozara qilish yo'li bilan bajarilishini topshiriq sifatida berishimiz mumkin. Masalan, harakatlar qachon ro'y berganiga qarab, voqealar izchilligini tiklang va muqobil yakun taklif qiling shaklida bersak, o'quvchilarni yanada mashqqa chuqurroq yondashishlariga erishishimiz mumkin.

6-sinf darsligidagi matn asosida savollarga javob bering topshirig'ini matn g'oyasini qo'llab-quvvatlovchi va inkor etuvchi guruhlar fikr almashinuvi orqali tahlil qiling sifatida o'quvchilarga taqdim etishimiz mumkin.

Tanqidiy tafakkurni shakllantirishda debat va munozara metodlaridan foydalanish ona tili darslarining mazmunan boyishini, o'quvchining shaxsiy fikrini ifoda etish ko'nikmalarining rivojlanishini ta'minlaydi. Yangi avlod darsliklaridagi topshiriqlarni chuqur tahlil qilish va ularni zamonaviy metodik yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish — innovatsion ta'limga asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-noyabrdagi 707-son qarori.
2. “Ona tili” 5–9-sinflar uchun yangi avlod darsliklari (2021–2023), Toshkent: TDPI.
3. Elder, L., Paul, R. (2010). The Miniature Guide to Critical Thinking. Foundation for Critical Thinking.
4. Nosirova, Z. (2023). “Interaktiv metodlar orqali ona tili darslarida fikrlashni rivojlantirish”. O'qituvchi jurnali, №1.

5. Yuldasheva, M. (2022). “Tanqidiy tafakkur va uning dars jarayonidagi roli”. Ilmiy-amaliy ta’lim jurnali, №4.